
SAXOVAT TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA



Qorakaltak mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi boquvchisini yo'qotgan Gulmiraxon Rahmatova tuman hokimiga oilaviy sharoitining og'irligi hamda farzandini davolatishi uchun yordam so'rab qilgan murojaati tuman hokimligi ishchi guruhi tomonidan o'rganib chiqildi.

8 dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun arafasida tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari Dilshodjon Kamoleddinov va tuman hokimining maslahatchisi Muhabbatxon Mo'ydinovlar Qorakaltak MFYda yashovchi ijtimoiy himoyaga muhtoj Gulmiraxon Rahmatovaning xonadonida bo'lishib, uning xolidan xabar olishdi.

Qaramog'ida ikki nafar voyaga yetmagan farzandlari bilan yashayotgan ayolning oilaviy sharoiti inobatga olinib, "Sultonbek fayz sahovati" fermer ho'jaligi rahbari Zuhridin Tojimatov homiyligida to'rt million besh yuz ming so'm miqdorda yordam ko'rsatildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-12-07 15:58:25